



## O'ZBEK ADABIYOTI MATNIDA YOSHGA BOG'LIQ SOTSIOLINGVISTIK KO'RSATKICHLAR: "YOZ YOMG'IRI" QISSASI TAHLILI

Sherkhonova Mokhidil Shukurjon kizi

mohidilsherxanova04@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti Filologiya fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15286051>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 23- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 26-Aprel 2025 yil

### KEYWORDS

*Til, yosh, sotsiolingvistika, o'smirlar tili, kattalar nutqi, avlodlararo tafovut, muloqot, lingvistik xususiyatlar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada til va yosh o'rtasidagi bog'liqlik sotsiolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Insonning turli yosh bosqichlarida nutq uslubi, leksik boylik, ifoda shakllari va muloqotdagi farqlar qanday namoyon bo'lishi yoritilgan. Xususan, "Yoz yomg'iri" qissasi misolida o'smirlar va kattalar nutqidagi farqlar, ularning til orqali o'z fikrini ifodalash uslubi, hayotga munosabatdagi tafovutlar ochib berilgan. Maqola yosh omilining tilga ta'siri, avlodlararo kommunikatsiyadagi nutqiy farqlar va ularning jamiyatdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.*

Insoniyat jamiyatida til kommunikatsiya vositasi sifatida eng muhim o'rinni egallaydi. Til nafaqat axborot uzatish, balki madaniyat, tafakkur, shaxsiy tajriba va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda ham beqiyos ahamiyatga ega. Tilingiz qanday bo'lsa, tafakkuringiz ham shunga mos tarzda shakllanadi. Shu bois til o'z holicha emas, balki ijtimoiy omillar, madaniyat, yosh, jins, kasb, etnik mansublik, ijtimoiy mavqe kabi ko'plab omillar bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Til va yosh o'rtasidagi bog'liqlik esa ana shu ijtimoiy omillar ichida eng asosiy va dolzarblaridan biri sifatida alohida o'rganishni talab qiladi.

Har bir yosh bosqichida insonning psixologik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi bilan birga, uning tilga munosabati, tildan foydalanish darajasi, uslubi va imkoniyatlari ham o'zgaradi. Bolalik davrida til o'rganish va uni qo'llash ko'proq taqlid asosida bo'lsa, o'smirlik va kattalik davrida tilning funksional imkoniyatlari kengayadi, uslubiy xususiyatlar boyiydi, tildan maqsadli foydalanish shakllanadi. Bu o'zgarishlar tilning leksik, fonetik, morfologik va sintaktik jihatlarida ham aks etadi [1, 23]. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda yoshlar tili bilan katta yoshdagilar tili o'rtasida ancha katta farqlar mavjud bo'lib, bu farqlar ko'pincha jamiyatdagi avlodlararo tafovut, madaniy tafakkur va texnologik taraqqiyot bilan bog'liqdir.

Sotsiolingvistika fani til va jamiyat o'rtasidagi munosabatni o'rganar ekan, yosh omilining tilga ta'sirini ham keng ko'lamda tahlil qiladi. Har xil yosh guruhlariga mansub kishilar tilni turlicha qo'llaydi: ularning so'z boyligi, ifoda uslubi, talaffuzi va hatto grammatika qo'llanilishidagi farqlar ham aynan yoshga bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli til va yosh o'rtasidagi munosabatni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, pedagogika, madaniyatshunoslik kabi fanlar uchun ham nihoyatda muhim hisoblanadi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, u orqali jamiyatdagi til o'zgarishlarini, avlodlararo til tafovutlarini, yoshga qarab tilga bo'lgan munosabat va foydalanish uslublarini chuqurroq anglash imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari, bu masala ta'lim tizimida til o'rgatish usullarini takomillashtirish, til siyosatini ishlab chiqishda yoshlar va kattalarning ehtiyojlarini hisobga olish, madaniy uzviylikni saqlab qolishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur maqolada aynan til va yosh o'rtasidagi bog'liqlikni sotsiolingvistik yondashuv asosida tahlil qilamiz. Tilning yoshga qarab qanday shakllanishi, o'zgarishi, ijtimoiy vazifalari va kommunikativ funksiyalari qanday namoyon bo'lishi o'rganiladi. Shu bilan birga, yoshga qarab tilning rasmiy va norasmiy kontekstlardagi ishlatilishiga, zamonaviy yoshlar tilining o'ziga xos xususiyatlariga, shuningdek, avlodlararo til tafovutlari va ularning sabablariga ham e'tibor qaratiladi.

Til insonning yoshiga qarab rivojlanadi va o'zgarib boradi. Bola tug'ilganidan boshlab tilni o'zlashtirish jarayoniga kirishadi, keyinchalik yoshga qarab nutqning rivojlanish bosqichlari kuzatiladi. Chunki "Bolalar nutqining asosiy, ko'zga yaqqol tashlanadigan tomoni tovushlarning talaffuzi masalasi bo'lsa, keksalar nutqida yaqqol ajralib turadigan xususiyat leksik, grammatik birliklardan foydalanishda ko'rinadi. Ularning nutqida maslahat, istak, buyruq mazmunidagi gaplar ko'p ishlatiladi. Yoki qoqindi, aylanay, o'rgilay, bolam, bo'tam, qizim, o'g'lim kabi so'zlar faol qo'llaniladi" [5, 110]. Yosh kattalashgan sari lug'at boyligi ortadi, grammatik qoidalarni tushunish darajasi yaxshilanadi va muloqot uslubi murakkablashadi. Til va yosh o'rtasidagi bog'liqlikni uch bosqichga ajratish mumkin:

- Bolalik davri (0-6 yosh) – bola tilni atrofdagilardan eshitib o'rganadi, so'z boyligi ortadi, grammatika va talaffuz rivojlanadi. Statistika ko'ra, "Bola 2 yoshga yetganda, uning leksikonida ona tilining taxminan 300, 3 yoshga yetganda, 1000, 4 yoshga yetganda, 2000 atrofida lug'aviy birligi shakllanar ekan" [2, 13].

- O'smirlik davri (7-18 yosh) – nutq mantiqiy, aniq va tushunarli bo'la boshlaydi, yozma va og'zaki nutq shakllanadi.

- Kattalik davri (18 va undan yuqori) – nutqdagi individual xususiyatlar shakllanib, kishining kasb-kori, tajribasi va ilmiy saviyasiga bog'liq ravishda rivojlanadi.

"Yoz yomg'iri" qissasidan til va yosh o'rtasidagi bog'liqlikka misol quyidagi dialoglardan ko'rinadi. Misol:

Munira va temiryo'lchi aka o'rtasidagi muloqot:

— *Assalomu alaykum! Ha, amaki, ishgami?* - *so'radi Munira, eski tanishlar kabi.*

— *Tirikchilik, qizim, - dedi yo'lovchi. - Sal kechikdingmi? Soating necha bo'ldi?*

— *Yo'q, vaqtida chiqdim. Beshdan o'nta o'tdi* [4, 3].

Bu misolda yosh qahramon (Munira) va keksa qahramon (temiryo'lchi aka) nutqi orasidagi tafovut seziladi.

- ◆ Munira – bevosita va soddaroq gapiradi, suhbatga samimiy ohang beradi.

- ◆ Temiryo'lchi aka – yoshga xos ravishda "tirikchilik" kabi umumlashgan tushunchalar bilan javob qaytaradi, kattalar nutqiga xos "qizim" so'zini ishlatadi, vaqtni so'rashi ham odatiy odobning ifodasidir.

Ushbu sahna til va yosh o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi, ya'ni keksa qahramon hayotiy tajriba va odob me'yorlariga tayanib gapirsa, yosh qahramon erkinroq va soddamuloqot yuritadi.

- Bolalar nutqi - soʻz boyligi cheklangan boʻladi, sodda gaplar ishlatiladi, atrofdagilarning soʻzlarini takrorlash orqali baʼzan talaffuz xatolari kuzatiladi.

- Oʻsmirlar nutqi - nutq mantiqiy va mazmunli boʻla boshlaydi, emotsional ifodalilik oshadi, yangi soʻzlar va jargonlardan foydalanish koʻpayadi.

- Kattalar nutqi - lugʻat boyligi keng boʻladi, til meʼyorlariga mos nutq shakllanadi, rasmiy va norasmiy muloqot turlarini farqlash koʻnikmasi ortadi.

Turli yoshdagi shaxslarning nutqi xususiyatlariga misollar keltiramiz:

1. Katta yoshdagi shaxsning nutqi: Bu misolda kekxa qahramonning nutqi donolik va hayotiy tajriba bilan boyitilgan:

— *Koʻnglingizga olmang, bolam. Hech kimning umri doim bir xil kechmaydi.*

— *Ha, hech kimniki, - dedi Rahim. - Baʼzan oʻylab qolaman, hayotning sirlariga hech tushunib boʻlmaydi.*

— *Odam bolasi tushunmasa ham yashaydi, bolam. Muhimi, niyat toʻgʻri boʻlsin [4, 76].*

Bu yerda kekxa insonning nutqi falsafiy, hayotiy tajribaga asoslangan boʻlsa, yosh qahramonning nutqi shubhalarga, izlanishga moyil.

2. Yosh shaxsning nutqi: Yosh qahramonning nutqi hissiyotga boy, ancha sodda va bevosita:

— *Juda zerikib ketdim. Nuqul bolalar, bolalar! Mendan oʻqituvchi chiqmaydi.*

— *Bu ishingiz tuzukmi?*

— *Albatta. Muhimi, ish kam. Kabinet nomigagina kabinet. Hamma kerakli oʻqish qurollari kutubxonada. Faqat maoshdan oʻn soʻm yutqazdim.*

— *Pulni oʻylamang. Maoshingizga men qoʻshib beraman. Oʻzingiz xursand boʻlsangiz, boʻldi [4, 59].*

Bu yerda yosh qahramon Munisa Saidovaning nutqida hissiyot va ochiq fikrlilik aks etgan, undan yoshi kattaroq Rahim Saidov (turmush oʻrtogʻi) ning nutqida esa masalaga vazmin yondashib, yechim taklif qilish aks etgan.

Rahim Saidov va Ubaydulla aka (qaynota)suhbati:

— *Keling, Rahimjon, oʻgʻlim!*

*Ubaydulla aka uni uyga boshladi.*

— *Keling, nechuk?*

— *Oʻzim, shunday...*

*Ubaydulla aka qyvondagi xontaxta yoniga oʻtirishar ekan, kuyoviga sinchiklab qaradi.*

— *Said akam tinchmilar? Quda aya?..*

— *Hammalari tinch, salom deb yuborishdi, - dedi Rahim Saidov, masalaga qanday yondashishni oʻylarkan.*

— *Ayam qanilar?*

— *Shu yerda. Nonga chiqib ketuvdi. Halizamon kelib qoladi. Xoʻsh, Toshkentlar tinchmi?*

[4, 101]

Bu suhbatda turli yoshdagi shaxslarning nutq xususiyatlari yaqqol koʻzga tashlanadi.

- ◆ Ubaydulla aka (qaynota): Donolik va hayotiy tajribaga asoslangan nutq, salom-alik va anʼanaviy yondashuv bilan gapiradi.

- ◆ Rahim Saidov (kuyov): Qisqa, ehtiyotkorona javob beradi, ogʻir dard tufayli qanday gap boshlashni bilmaydi.

Bu dialog asarda yosh va keksa inson nutqidagi farqlarni ko'rsatib turibdi.

Har bir kasb vakili o'z faoliyatiga xos lug'at, uslub va ifoda vositalariga ega. Bu ularning kundalik muloqoti, yozishmalari va ishdagi aloqa shakllarida yaqqol ko'rinadi.

— *Leytenant Sultonov!*

— *Eshitaman, o'rtoq kapitan?*

— *Olloyorovning hozir qayoqqa borishini kuzatish kerak.*

— *Xo'p bo'ladi.*

— *Ro'ziyev kelmadimi?*

— *Yo'q hali, o'rtoq kapitan.*

— *Bo'lmasa yana bitta topshiriq: Olloyorov avgustning 13–14-da qayerda bo'lganini aniqlash kerak.*

— *Aniqlangan, o'rtoq kapitan.*

— *Xo'sh?*

— *Olloyorov 13–14-avgustda ishda bo'lmagan.*

— *Qayerda bo'lgan?*

— *Samarqandda, o'rtoq kapitan.*

— *Nega ilgari aytmadingiz?*

— *Kechirasiz, o'rtoq kapitan. Hozir bildim. Uning mashinasini Jizzaxdagi avtoinspeksiya to'xtatgan.*

— *Nega?*

— *Tezlikni oshirgani uchun.*

— *Rahmat. Topshiriqni bajaring.*

— *Xo'p bo'ladi, o'rtoq kapitan! [4, 119]*

Bu matnda harbiy soha vakillarining (kapitan va leytenant) kasbiy muloqoti berilgan.

Harbiylar nutqiga xos xususiyatlar:

Qisqa va aniq buyruqlar: "Topshiriqni bajaring."

Hurmat ifodasi: "o'rtoq kapitan"

Rasmlikka yaqin rasmiy uslub: "Aniqlangan, o'rtoq kapitan."

Ushbu misollar "Yoz yomg'iri" qissasida yosh va til o'rtasidagi bog'liqlik qanday namoyon bo'lishini aniq ko'rsatib beradi.

Til va yosh o'rtasidagi bog'liqlik tabiiy rivojlanish jarayonining muhim qismidir. Turli yosh guruhlarida nutq xususiyatlari farqlanadi va bu insonning ijtimoiy muhitiga, ta'limiga hamda individual tajribasiga bog'liq. Ayniqsa, bolalar nutqining shakllanishi turli omillarga bog'liq bo'lib, ota-onalar va pedagoglar bu jarayonda katta rol o'ynaydi. Nutqning rivojlanishi uchun bola atrofida boy lingvistik muhit yaratish muhim sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulov Z., Boymirzayeva S. Sotsiolingvistika. Ma'ruzalar matni. – Samarqand: SamDU nashri, 2009. – 108 b.
2. Berdialiyev A., Turdibekov M. Sotsiolingvistika. Darslik. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2022. – 134 b.
3. Usmanova Sh. Sharq mamlakati sotsiolingvistikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2016. – 164 b.
4. Umarbekov O'lmas. Yoz yomg'iri. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 158 b.

5. Yusupova O. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023. – 234 b.



**INNOVATIVE  
ACADEMY**